

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi: 10.69691

ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



9 (72)

2025



MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li. Asfandiyorxon: islohot, inqiroz, fitna	62
Ungalov Azizbek Amiriddin o'g'li. Akkulturationsiya, sinkretlashuv va transformatsiya: IX–XII asrlarda movarounnahr hududida buddaviy–shamanik amaliyotlarning islomiy marosimlarga singishi.....	69
Курбанова Дилрабо Шерипбоевна. История деятельности женщин депутатов, избранных в парламент независимого Узбекистана.....	73
Egamberganova Matluba Jobborgonovna. Diniy e'tiqodlarda ekologik madaniyatga oid qarashlarning yoritilishi.....	77
Ibroximova Mamlakat. Xix asrning oxirlarida rus hukumatining Turkistonda amalga oshirgan tadbirlari va aholini umumiy ro'yxatga olish.....	80
Jumaniyazov Bekzod, Sabanova Nilufar. Zamonaviy fuqarolik jamiyati nazariyalari: g'arb va musulmon dunyosidagi yondashuvlar.....	106
Jumaniyazov Sardorbek Muxtorbek o'g'li. Shayboniylar davrida urf-odatlar, an'analar va diniy hayot.....	110
Isayev Oybek Ahmed o'g'li. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi.....	122
Rashidova Aziza Aminboyevna. O'zbekiston Respublikasi va Pokiston islom Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy asoslarini shakllanishi.....	135
Ne'matov Shavkatjon Boymurod o'g'li. Qashqadaryo viloyatida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi dastlabki islohotlar.....	164
Матякубов Шоназар Собирович. Хива хонлигидаги маиший ҳаёт ва урф-одатлар ҳақида (эрон элчиси Мухаммад Алихон Фафур кундаликлари асосида).....	167
Tuyev Fazliddin Erkinovich. Zarafshon vohasida qo'shma korxonalarning rivojlanishi: xorijiy sarmoya va eksport salohiyati tahlili (2001–2005).....	180
Toshtemirova Nigora Dilshodovna. O'zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushi yillarida ayollar va bolalar salomatligi masalasi.....	199
Davronova Iroda Ulug'bekovna. Qashqadaryo viloyatida mavjud televideniye va radio tarmoqlari faoliyati.....	202
Пардаев Асрор Абдужабборович. Источниковедение темы повседневной жизни и социальных условий проживания жителей Кашкадарьинского оазиса в 1985-2021 годах.....	207
Эримматова Гулноза. XVI-XVIII asrlarda Xiva хонлиги шаҳарлари тарихига оид баъзи бир мулоҳазалар.....	234
Toshtemirov Akram Mengli o'g'li. Surxon vohasi tog' va tog'oldi hududlarida uy hunarmandchiligining etnografik xususiyatlari.....	304

09.00.00 - "FALSAFA"

Ergashev Urolbek Berkinovich. Islom axloqshunosligida Ahmad Toshko'prizodaning tutgan o'rni.....	55
Xo'janova Tamara Jo'rayevna. Qadimgi davr va o'rta asrlarda axborot urushlari va ularning ilmiy-falsafiy asoslari.....	58
Nazarov Ilhom Alimovich. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlari.....	97
Mamadaliyeva Husnora Baxodir qizi. Hakim Termiziyning falsafiy-tasavvufiy qarashlari.....	149
Azamova Sitora Ayonovna. Globallashuv sharoitida ekologik madaniyat paradigmalarining o'zgarish qonuniyatlari va tendensiyalari.....	152
Jo'rayev Akram N. Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmning kelib chiqish sabablari hamda ularning yoshlar ongiga salbiy ta'siri.....	155
Choriyev Sanjarbek Anvarovich. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni: mazmuni, maqsadi va xarakteri.....	189
Филиппов Ольгерд Александрович. Цифровая личность между Востоком и Западом: философские модели субъектности.....	213
Yuldasheva Lola S. "Kitāb al-ghinā-al-munā fi 'ilm al-ṭibb" niing tibbiy va falsafiy mazmuni hamda uning o'rta asrlar tibbiyotiga ta'siri.....	223
Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna. Tazkiralarda muallifning shaxsiy qarashlari va tarixiy voqelik bilan uyg'unligi.....	227
Qurbonov Sherzodjon. Yoshlar ongida axborot terrorizmiga qarshi ma'naviy- axloqiy immunitetni shakllantirish mexanizmlari.....	245
Abdimalov Davronbek Abdug'ani o'g'li. Davlat xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri.....	249
Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li. Oliy ta'lim tizimida ekologik ongning shakllanishi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....	262
Abdurazoqov Gulmurod Musurmonqulovich. Ma'furaviy omillarning yoshlar tafakkuriga ta'sirini oshirish mexanizmlari.....	295

12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"

Murodjonova Mohiraxon Maqsudjon qizi. Problems of legal regulation and conflicts of law in international construction contracts.....	25
Ahmadaliyev Barhayotjon Oybek o'g'lu. Some legal aspects of protecting the state borders of the Republic of Uzbekistan.....	217
Yakubov Bekzod Erkinbayevich. Foreign experience specific aspects of proof in conducting criminal judicial-investigative cases in the Republic of Uzbekistan.....	249

13.00.00. - "PEDAGOGY"

Kenjaboyev Abdusalim Erkaboyevich. Inclusive school as a model for creating the educational space of the future Abstract.....	28
Egamberganova Makhbuba Jabbargan qizi. Language learning and intercultural communication in the context of gender values.....	84
Mirzalimov Muslimbek Soatjon o'g'li. Modern Pedagogical Approaches in training young gymnasts.....	142
Sarsenova Jadira. Bo'lajak pedagoglar tayyorlashda axloqiy-ma'naviy va estetik tarbiya: xorijiy tajriba va milliy amaliyotning qiyosiy tahlili.....	280
Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Theoretical and practical aspects of integrative teaching of history within the cluster system.....	283
Haydarova Zilola Normurodovna. Individual communication of a teacher with a student in a modern digital educational process.....	286
Usmanova Munisa Shukhrat kizi. Methods and means of implementing the social culture of future russian language teachers.....	298

19.00.00. - "PSYCHOLOGY"

Jumabayeva Dildora Madaminovna. Similarities and differences in the correlation of students' communicative skills with personality traits.....	9
Iminova Gulxumor Ilxomjon qizi. Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li. Changes in the ability to concentrate attention.....	205

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843. According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 – “History”, 09.00.00 – “Philosophy”, 10.00.00 – “Philology” according to; 2023 of the HAC Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. – “Legal Sciences”, 13.00.00. – “Pedagogy”, 19.00.00. – “Psychology”.

ZAMONAVIY RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING O'QUVCHI BILAN INDIVIDUAL MULOQOTI

*Haydarova Zilola Normurodovna, Chirchiq davlat pedagogika
universiteti katta o'qituvchisi*

INDIVIDUAL COMMUNICATION OF A TEACHER WITH A STUDENT IN A MODERN DIGITAL EDUCATIONAL PROCESS

*Haydarova Zilola Normurodovna, Chirchik State Pedagogical
University Senior Lecturer*

ИНДИВИДУАЛЬНОЕ ОБЩЕНИЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ С УЧАЩИМИСЯ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

*Хайдарова Зилола Нормуродовна, старший преподаватель
Чирчикского государственного педагогического университета*



<https://orcid.org/0009-0002-1214-0281>

e-mail:
haydarova.zilol@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'limning zarurati, maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish hamda raqamlashtirish jarayonida fan o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar tahlili bo'yicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, raqamli ta'lim, zamonaviy o'qituvchi, individual yondashuv, raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, individuallashtirilgan yondashuv, Kundalik com, Quizizz, Khan Academy, YouTube Education, Google Arts & Culture, motivatsiya, tarixiy xarita, raqamli o'qitish, raqamli ta'lim, ijodiy fikrlash, individual ta'lim, mobil ta'lim, raqamli manbalar, elektron kutubxona.

Annotation: This article reflects on the need for digital education, the formation of digital learning skills in schoolchildren, as well as the analysis of the requirements for science teachers in the process of digitization.

Keywords: digitization, digital education, modern teacher, individual approach, digital technologies, multimedia tools, individualized approach, Daily com, Quizizz, Khan Academy, YouTube Education, Google Arts & Culture, motivation, historical map, digital teaching, digital education, creative thinking, individual education, mobile education, digital resources, Electronic Library.

Аннотация: В этой статье рассматривается необходимость цифрового образования, формирование навыков цифрового обучения у школьников и анализ требований, предъявляемых к учителям естественных наук в процессе цифровизации.

Ключевые слова: оцифровка, цифровое образование, современный учитель, индивидуальный подход, цифровые технологии, мультимедийные инструменты, индивидуальный подход, Daily com, Quizizz, Khan Academy, YouTube Education, Google Arts & Culture, мотивация, историческая карта, цифровое обучение, творческое мышление, индивидуальное обучение, мобильное обучение, цифровое обучение ресурсы, электронная библиотека.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida inson kapitalini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini yangicha mazmunda tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tarix fanini

o'qitishda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy qarashlar va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy o'qituvchi endilikda faqat bilim manbai emas, balki o'quvchi bilan individual muloqot olib boruvchi, ularning shaxsiy o'sish trayektoriyasini yo'naltiruvchi raqamli mentor sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bois ta'limda individuallashtirilgan yondashuv va raqamli texnologiyalar integratsiyasi dolzarb masalaga aylangan.

Individuallashtirilgan yondashuv tarix fanini o'rganishda har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari, tarixiy mavzularni idrok etish darajasi, muloqot va tahliliy fikrlash salohiyati, qiziqishlari va ijtimoiy pozitsiyalarini hisobga olib, ularga mos metodlarni tanlashni taqozo etadi. Bunday yondashuv tarixiy hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish, tarixiy fikr yuritish, dalillarga asoslangan tahlil qilish va xulosalash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish ham zamonaviy tarix ta'limining ajralmas bo'g'iniga aylangan. O'quvchilar uchun elektron darsliklar, tarixiy xaritalar, virtual ekskursiyalar, infografikalar, tarixiy hujjatlar bazalari, tarixiy filmlar va hujjatli videolar, interaktiv testlar, mobil ilovalar va platformalar orqali tarixiy bilimlarni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Bu esa o'quvchilarning bilimga bo'lgan munosabatini faollashtiradi. Raqamli tarixiy manbalar bilan ishlash – bu faqat axborotni izlash emas, balki tarixiy hodisalarni tahlil qilish, birlamchi va ikkilamchi manbalarni solishtirish, tarixiy faktlar asosida o'z pozitsiyasini ifodalashni ham anglatadi. Bu jihatlar esa tarix fanining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi va o'quvchilarda tarixiy ongni shakllantiradi.

Individuallashtirilgan yondashuv asosida raqamli o'rganish ko'nikmalarini tarix darslarida quyidagicha shakllantirish mumkin: tarixiy mavzular bo'yicha shaxsiy izlanish topshiriqlari – o'quvchi o'z qiziqishiga mos tarixiy davr, shaxs yoki hodisani raqamli resurslar orqali o'rganadi; interaktiv testlar va viktorinalar – tarixiy faktlar asosida tezkor va qiziqarli baholash vositasi sifatida xizmat qiladi; virtual tarixiy ekskursiyalar – muzey, yodgorlik, arxivlar bo'ylab raqamli sayohatlar orqali tarixiy tasavvurni kengaytiradi;

o'quvchi bloglari va prezentatsiyalar – tarixiy mavzularda raqamli taqdimotlar va shaxsiy fikrlarni ijtimoiy tarmoqlarda ifodalashga imkon beradi; tarixiy xaritalar bilan ishlash – geopolitik holatni tushunishda interaktiv vositalar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Raqamli ta'lim jarayonida individual yondashuv masalalari bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida turgan mavzulardan biridir. Mahalliy tadqiqotchilardan M.S.Qamarov raqamli texnologiyalarining o'rta ta'lim tizimidagi rivojlanishi[1], S.Toshtemirova, F.Ilmuradovlar [7] raqamli ta'limning tarix fanini o'qitishdagi samarali jihatlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijiy tadqiqotchilardan M. Sulaymon va B.G.Danmuchikvalilar raqamli ta'limning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilgan bo'lsa, F.A.Tuguz raqamli ta'limni yangi pedagogik paradigma sifatida o'rganadi. Ushbu tadqiqot ishimizda tahlil qilish, taqqoslash, kuzatish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim jarayonida individual yondashuv o'quvchilarning faolligini, mas'uliyatini va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Tarix fanida raqamli ta'lim vositalarini qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O'quvchi motivatsiyasining ortishi. Interaktiv testlar, virtual ekskursiyalar va tarixiy xaritalar orqali o'quvchilarning fanga qiziqishi sezilarli darajada oshadi.

2. Ijodiy fikrlash rivoji. Bloglar, taqdimotlar va raqamli loyihalar orqali o'quvchi tarixiy jarayonlarni o'z nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

3. Raqamli savodxonlikni shakllantirish. Elektron kutubxonalar va raqamli hujjatlar bazasi bilan ishlash orqali o'quvchilar axborotni izlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

4. O'qituvchi-o'quvchi muloqotining individuallashtirish. Raqamli vositalar yordamida har bir o'quvchiga shaxsiy o'quv trayektoriyasi, mustaqil topshiriqlar va qayta aloqa taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli o'rganish jarayonida o'qituvchi endilikda nazorat qiluvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, ijodiy hamkor rolini bajaradi. Natijada o'quvchilarda "self-study" — mustaqil bilim olish, o'zini o'rganish va o'qish jarayonini rejalashtirish qobiliyatlari shakllanadi[1]. Ayniqsa, tarix fanini o'rganishda o'quvchilarning mustaqil ravishda tarixiy manbalarni o'rganish, tarixiy faktlarni tahlil qilish, zamonaviy dasturlar orqali tarixiy voqealarni vizual ko'rish imkoniyati raqamli o'rganish orqali kengaymoqda. Raqamli o'rganish jarayoni o'quvchilarda "self-study", ya'ni o'zi o'rganish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayonda o'quvchi o'z o'rganish maqsadini belgilaydi, o'rganish trayektoriyasi, vositalarini tanlaydi va o'rganish davomida o'z zimmasiga mas'uliyat oladi[2].

XULOSA. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining vositachi elementi sifatida o'qituvchilarga an'anaviy iyerarxik modeldan chiqish imkonini beradi. O'quvchilar yozadigan, o'qiydigan, o'rganadigan, o'zaro ta'sir qiladigan, birgalikda tarixiy mavzularni tahlil qiladigan va shaxsiy nuqtayi nazarini shakllantiradigan o'rganish yo'nalishlarini tanlaydilar. Tarixiy mavzularda elektron forumlarda bahs yuritish, ijtimoiy tarmoqlarda tarixiy postlar ustida munozara qilish, tarixiy testlarni onlayn tarzda topshirish – bularning barchasi zamonaviy tarixiy o'rganish jarayonining ajralmas bo'lagiga aylanmoqda[3]. Raqamli tarixiy o'qitish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchidan nafaqat bilim va malaka, balki shaxsiy sifatlar – ziyraklik, muloyimlik, o'rgatish ishtiyoqi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari ham talab etiladi. Zero, zamonaviy tarix fani o'qituvchisi — bu raqamli vositalar yordamida tarixni o'rgatishda shaxsiy namuna ko'rsata oladigan, tarixiy bilimlarni raqamli interaktiv shaklda etkaza oladigan, o'quvchilarning tarixga qiziqishini uyg'otib, mustahkam bilim bazasi yaratadigan pedagogidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qamarov M.S. Raqamli texnologiyalarning o'rta ta'lim tizimidagi rivojlanishi va yangi texnologiyalarning dars jarayonlari bilan integratsiyalashuvi. *Science and Education. Scientific Journal* //Imract Factor 3.848. Mau 2023 / Volume 4 Issue 5, 1173-b.
3. Jack Cohen. So Uou Want To Work at a Startur? Hone These 11 Soft Skills First. - Electronic resource: <https://medium.com/the-ascent/so-uou-want-to-work-at-a-starturhone-these-11-soft-skills-first-377e9f27dc45> Date of the arrlication: Arril 5, 2020.
4. Haydarova Z.N. (2023). Maktab o'quvchilariga raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. *Academic research in educational sciences*, 4 (CSPU Conference 1), 1008-1013.
5. Haydarova Z.N. Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. *O'zMU xabarlari*, 2023-yil. 1/10/1, 225-227 bet.
6. Haydarova Z.N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. *International Journal on Integrated Education*, 6(12), 37-42.
7. Ilmurodova, F. (2025). Pedagogical and methodological aspects in preparing future history teachers for professional activity. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 6(01), 99-107.
9. Ilmurodova, F.S. (2024). The use of differentiated education in history lessons: theory and practice. *European Science Methodical Journal*, 2(6), 438-444.
10. Koshanova N. Yevropa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda intellektual mulk huquqining ahamiyati //Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – T. 1. – №. 64. – C. 347-349.
11. Кошанова Н. М. Оила ва мураббий манфаатли ҳамкорлигининг таълим сифатини оширишдаги аҳамияти //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – C. 32-41.

